



**SAMARQAND VILOYATIDA YER MAYDONLARI,
DEHQONCHILIK VA MUAMMOLAR (XIX ASR OXIRI-XX ASR
BOSHLARI)**

*Allayarov Otabek Xaliyorovich,
ISFT Samarqand filiali assistenti, Samarqand.*

Annotatsiya: Ushbu maqolada 1897-yilda tashkil topgan Turkistonda yer va davlat mulki boshqarmasining Samarqand viloyatidagi faoliyati, viloyat hududidagi yer maydonlari, dehqonchilik jarayonlari, sug'orish tizimi haqida so'z boradi. Shu bilan birga mavjud muammolar faktlar asosida yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Turkistonda yer va davlat mulki boshqarmasi, desyatina, yer, sug'orish tizimi, Mirzacho'l, sholi, dehqonchilik, daryo.

Samarqand viloyati Turkiston general gubernatorligi tasarrufidagi muhim ahamiyatga ega bo'lgan viloyatlardan biri hisoblanadi. Viloyat hukumatning 1887-yil 1-yanvarda Turkiston o'lkasi boshqaruvi to'g'risidagi maxsus Nizomi (Fuqarolik qonunchiligi kodeksining II jildi, 1892-yil nashri) asosida tashkil topgan¹. Ma'muriy tuzilishiga ko'ra Samarqand viloyati to'rtta uezddan iborat: Samarqand, Kattaqo'rg'on, Xo'jand va Jizzax². Tashkil etilgandan so'ng bu hududda mustamlakachilikning asosiy maqsadi hisoblangan yerga egalik qilish siyosati yanada faol, tizimli ishlay boshladi.

Yer resurslari bo'yicha nazoratni 1897-yil tuzilgan Turkiston yer va davlat mulki boshqarmasi tashkil qiladi. U sug'orish tizimi, o'rmon xo'jaligi, sinovlar, tabiiy boyliklarni qidirish bilan shug'ullanadi. Shu bilan birga bu boshqarma qishloq xo'jaligi o'quv yurtlari-gidrotexnika va gidrometriya bilim yurtlari, bog'chilik,

¹ Справочная книжка Самаркандской области. 1909-г. Выпускъ IX. Самарканд. Типо-литография Г.И. Демурова 1909. 1-бет.

² Положение объ управлении Туркестанскаго края. Ташкент 1903. Типо-литография В.И. Ильпина 1903. 1-бет.



uzumchilik maktablari ishini ham tashkil qiladi³. Ushbu tashkilotning shakllanishi mintaqadagi barcha tabiiy manbalarni nazorat qilish imkoniyatini yaratdi. Boshqarma 20 yillik faoliyati davomida Samarqand viloyatida ham vazifa vakolati doirasida keng siyosat olib bordi. Ammo tashkilot ish jarayonida ko'pgina kamchiliklarga yo'l qo'ydi. Jumladan, bu holatni yangi yerlarni o'zlashtirish masalasida ko'rish mumkin.

1912-yilda Samarqand viloyatining bo'sh yerlaridan xabardor bo'lish uchun 1913-1915-yillarga mo'ljallangan ish dasturi rejalashtirilgan. Shu vaqt ichida viloyatning markaziy qismida joylashgan barcha bo'sh yer maydonlari hisobga olinadi, degan taxmin bor edi. Ushbu taxminlarga ko'ra, o'rganilishi kerak bo'lgan umumiy maydon 1 100 000 desyatina bo'lib, ulardan xuddi shu taxminlarga ko'ra, 1915-yilda 300 000 desyatingacha tekshirilishi kerak edi. Biroq keyin ma'lum bo'ldiki, bu behisob hududga qo'shimcha ravishda, ilgari ko'chmanchi mintaqada joylashgan deb hisoblangan yana 386 ta o'lchamli yer maydonini o'rganish kerak edi⁴.

1908-1909-yillarda o'lka hududini, shu bilan birga Turkistonda yer va davlat mulki boshqarmasi faoliyatini taftish qilgan K.K. Palenning ma'lumotlari ham muhim hamaiyatga ega.

Samarqand viloyatining umumiy maydoni desyatina 8 289 128, shundan shahar qismi 15 997 desyatina, mahalliy aholiga tegishli yerlar 2 221 113 desyatina, xususiy mulk yerlari 1 415 desyatina, rus ko'chmanchilariga 22 907, davlat yerlari hisoblangan obrok yerlar 59 936, o'rmon yerlari 3 914 086, umumiy hisobda 6 235 454, qolgan 2 053 674 desyatina yerlar esa ko'chmanchilar muddatsiz, doimiy ravishda foydalaniladigan yerlar hisoblanadi⁵.

Viloyatda mavjud yerlar turli xil ekin maydonlari uchun taqsim qilingan. I.I. Geyer bergan ma'lumotlarga ko'ra dehqonchilik maydonlarining ekin turlariga ko'ra taqsimoti viloyat uездlarida quyidagicha bo'lgan:

³ Ўз.МА: 7-фонд, 1-рўйхат, 2428- иш, 7-бет

⁴ Ўз.МА: 7-фонд, 1-рўйхат, 8909-иш, 7-бет.

⁵ Пален К.К. “Материалы к характеристике народного хозяйства Туркестана”. 1911. 93-бет.



Samarqand uezdida paxta uchun ajratilgan maydon 5 500 desyatina, bug‘doy uchun 95 000 desyatina, arpa uchun 46 000 desyatina, guruch uchun 29 000 desyatina;

Jizzax uezdida paxta uchun ajratilgan maydon 800 desyatina, bug‘doy uchun 71 000 desyatina, arpa uchun 17 000 desyatina;

Xo‘jand uezdida paxta uchun ajratilgan maydon 4 000 desyatina, bug‘doy uchun 27 000 desyatina, arpa uchun 6 000 desyatina, sholi uchun 1 400 desyatina;

Kattaqo‘rg‘on uezdida paxta uchun ajratilgan maydon 8 000 desyatina, bug‘doy uchun 22 000 desyatina, arpa uchun 6 000 desyatina, guruch uchun 1 200 desyatina hisoblanadi.

Viloyat miqyosida esa bu ko‘rsatgich jami paxta uchun ajratilgan maydon 18 300 desyatina, bug‘doy uchun 215 000 desyatina, arpa uchun 75 000 desyatina, guruch uchun 32 000 desyatinani tashkil etadi⁶.

Turkiston general-gubernatorligi viloyatlarida ekin turlari va maydonlarining hajmi jihatidan o‘ziga xos reyting vujudga kelgan. Ekin maydoni bo‘yicha birinchi o‘rinda bug‘doy turadi, u barcha yerlarning yarmidan ko‘prog‘ini (2.712.260 desyatinadan 1.404.788 desyatinagacha) tashkil etadi. Bug‘doy yetishtirish bo‘yicha birinchi o‘rinda Sirdaryo viloyati, ikkinchi o‘rinda Samarqand, uchinchi o‘rinda Farg‘ona viloyati turibdi. Paxta ikkinchi o‘rinni egallaydi–523 674 gektar. Ayrim viloyatlar bo‘yicha u quyidagicha taqsimlangan: Sirdaryo viloyatida maydonning qariyb 7,6%, Farg‘ona viloyatida deyarli 40% (39,7%), Samarqand viloyatida qariyb 7,9%, Kaspiyorti mintaqasida 32%. Uchinchi o‘rin arpaga tegishli - 259 902 desyatina. Eng ko‘p arpa Samarqand viloyatiga to‘g‘ri keldi. To‘rtinchi o‘rinni beda egallaydi. Uning mintaqadagi ulushi 176 867 gektarni tashkil etdi. Beshinchisida sholi turadi. Unga tegishli maydon-153,448 desyatina⁷.

Samarqand viloyat statistika kometeti sekretari M. Virskiyning 1907-yil uchun bergan ma’lumotlarida viloyatda ekin turlari ichida sholi yetishtirishga alohida

⁶ И.И. Гейер. Туркестан. Ташкент. Типография Туркестанского Т-ва печатного дела. 1909. 234-бет.

⁷ Я. П. Демидов. Экономические очерки хлопководства, хлопковой торговли и умышленности в Туркестане. Москва. Новая Деревня. 1928. 14- бет.



keng e'tibor qaratilgan. "Nauskiy volostida so'nggi ikki yil ichida (ya'ni 1899-1900) qandaydir hayratlanarli holatlar kuzatildi. Sholi maydoni 392 desyatinadan 2000 desyatinaga ko'paydi. Xo'jand uezdida sholi ekinlari maydonining bunchalik ko'payishi sababi menga aniq noma'lum; aholining ba'zi ma'lumotlariga ko'ra, so'ngi paytlarda Nauskiy volostida sholi ekishning ko'payishi chigirtkalarining ta'siri bilan bog'liq deb taxmin qilish kerak. Ushbu volostda o'tgan yili va undan oldingi yillardagi bu ofat deyarli barcha kuzgi va bahorgi ekinlarni yo'q qildi, bu esa yerni qayta haydashga majbur qildi. Dalaga kech takrorlanadigan o'simliklardan sholi, ayniqsa, sholining "Arpa-sholi" navi ekilgan. Samarqand viloyatida sholining to'rt navi: Arpa-sholi, Oq-sholi, Qizil sholi va Qora-qaliq navlari keng tarqalgan"⁸.

Samarqand viloyatida 1912-yil kuzgi bug'doy hosili o'rtachadan past edi. Kuzgi bug'doydan faqat Kattaqo'rg'on tumani va qisman Jizzax tumanida mo'l hosil olindi. Ko'p joylarda bahorgi dalalarda hosil past, Xo'jand uezdida esa qoniqarli hosil bo'ldi. Sholi 1912 yilda 45 ming gektar maydonga ekilgan. Asosiy sholi yetishtiriladigan viloyatlar: Samarqand, Kattaqo'rg'oq va Xo'jand viloyatlari⁹.

Viloyatda keng tarqalgan yana bir ekin turi tamaki hisoblanardi. Bu haqida K.K. Palen ma'lumot berib o'tadi. Buxoro yaqinidagi Kattaqo'rg'on, Zarafshonning quyi oqimida sug'oriladigan yerlarda tamaki madaniyati yuksak darajada rivojlangan¹⁰.

Yana bir holatga alohida e'tibor berish lozimki, tabiiy iqlim sharoiti dehqonchilik faoliyatiga o'z ta'sirini doimiy tarzda ko'rsatib turgan. Turkistonda yer va davlat mulki boshqarmasi bu holatlarda yomg'irning kam yog'ishi, chigirtkaning ko'payishi kabi muammolarga duch keldi.

Suv muammosi bo'lgan hududlarda ko'proq chorvachilik yoki lalmikor dehqonchilik ustuvorlik qilishi manbalarda tasdiqlanadi.

⁸ Справочная книжка Самаркандской области. 1907-г. Выпускъ IX. Самарканд. Типо-литография Г.И. Демурова 1907. 7-8-бет.

⁹ С. Г. Конопка. Туркестанский край. Ташкент. Г. М. Цвилинг. 1912. 117-бет.

¹⁰ Пален К.К. "Материалы к характеристике народного хозяйства Туркестана". 1911. 11-бет.



Gulakandoz, Xo‘jand, Naygut-Qipchoq hududlarida sug‘orishning yetarli emasligi natijasida ko‘chmanchilik madaniyati ustunlik qiladi¹¹.

Shundan xulosa qilish mumkinki, viloyatda irrigatsiya masalasiga doir ishlarga ham alohida e‘tibor qaratilishi lozim bo‘lgan. Turkistonda yer va davlat mulki boshqarmasi bu borada ham talay ishlarni amalga oshirgan. Ayniqsa, yangi o‘zlashtirilgan yerlarni sug‘orish masalasi muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Samarqand viloyati irrigatsiya boshlig‘i P. Petrovskiyning Samarqand viloyati harbiy gubernatori Ya. D. Fedorovga eski sug‘orish inshootlarini o‘rganish zarurligi haqida 1897-yil 30-dekabr hisoboti ushbu fikrlarni isbotlaydi.

“Qishloq xo‘jaligi va davlat mulki vazirligidan Samarqand viloyatida 1895-yildan buyon uch nafar texnik xodimdan iborat tadqiqot guruhi ishlamoqda, ular yangi yerlarni sug‘orish bo‘yicha tadqiqot ishlarini olib bormoqda.

Hozirda, 1897-yil, bu partiyadan ikki texnik Mirzacho‘lni tekislash ishlarini olib bordi, uchinchi esa Xo‘jand uezdida Xo‘jabaqirg‘on, Oqsuv va Shahrison daryolari hududlarida bir paytlar sun‘iy inshootlar izlari saqlanib qolgan joylarda suv omborlari qurish maqsadida ishladi. Samarqand viloyatida sanab o‘tilgan daryolardan tashqari, shu paytgacha o‘tkazilgan o‘rganishlardan ma‘lum bo‘lishicha, sun‘iy inshootlar va hatto inshootlarning o‘zlari ham quyidagi joylarda saqlanib qolgan:

1) Jilanchi daryosi Jizzax tumanining Bog‘don hududida, Nurota tog‘larining shimoliy yonbag‘irlari bo‘ylab oqib o‘tadi. Bu yerda zikr etilgan daryoning buloq suvlarini saqlab qolgan tosh to‘g‘on saqlanib qolgan. Hozirgi vaqtda oqimning yuqori tomonidagi bu to‘g‘on deyarli butun balandligigacha loy bilan qoplangan.

2) Mirzacho‘lni oldingi cho‘ldan ajratib turadigan janubiy chiziqli bo‘ylab xizmat qilgan sobiq korizlarning izlari bor. Kelgusi 1898-yil tadqiqot ishlari olib borish ma‘qul.

Loyihaga zarar yetkazmasdan butun Mirzacho‘l hududini tekislash tarmog‘i bilan qoplash ikki yil o‘rniga uch-to‘rt yilda yakunlanishi mumkin va hozirda bitta

¹¹ Пален К.К. “Материалы к характеристике народного хозяйства Туркестана”. 1911. 11-бет.



texnik yordamida ko'rsatilgan hududlarda so'rov o'tkazgandan so'ng, siz loyiha, smeta tuzishingiz va mablag' bo'lgan taqdirda ishni boshlashingiz mumkin"¹²

Yana bir muammo qabul qilingan qarorlar natijasida mahalliy aholining yersizlanishi hisoblanadi. Bu holat Samarqand viloyatida ham ommaviy tarzda yuz berdi.

Mahalliy zodagonlarning, yirik boylarning va ulamolarning mulkchiligidagi yerlari miqdori kamaytirildi. Keyin musodara qilingan yerlarning bir qismi shu yerda mehnat qilayotgan dehqonlarga maxsus sharoitlar asosida doimiy foydalanishga berildi. Lekin yer haqidagi qonunlarda, Turkistonni boshqarish to'g'risidagi nizomda (1886-yil) va 1900-yil unga kiritilgan qo'shimchalarda mahalliy dehqonlarga yerni xususiy mulk qilib berilishi qayd etilmagan. Oqibatda mehnat qurollariga, otulovlarga, pul mablag'iga ega bo'lmaganlar sudxo'rlarga, hosilni olib-sotuvchilarga qaram bo'lib qolishar edi¹³

Aholi jon boshiga hisoblanganda ham Samarqand viloyati general-gubernatorlikdagi eng past ko'rsatgichlardan birini tashkil etadi.

V.P. Nalivkinning hisob-kitoblariga ko'ra, 1897-yilda Samarqand viloyatida 501 924 desyatina, umumiy 857 847 kishiga yoki bir kishi uchun 0,58 desyatini tashkil etdi. Huddi shu viloyatda 171 569 ta oila bo'lib, ulardan uy-joysiz, ya'ni o'z tomorqasi va saqloviga ega bo'lmagan oilalar 43 485 ta oila bo'lgan¹⁴. Bu raqamlar mahalliy aholining ommaviy qashshoqlashuviga olib kelgan. Natijada so'dxo'rlik ham viloyat miqyosida avj olgan.

Chor hukumati tomonidan ko'rilgan chora-tadbirlar mehnatkash ommaning yirik dehqonlarga qullik qaramligining kuchayishini to'xtata olmadi. Sudxo'rlik kuchayib, keng tarqaldi. Masalan, afg'on taxtining sobiq vorisi Isoqxon Samarqandda

¹² Голодный степь. (История края в документах). Москва. Наука. 1981. 38-39-бет.

¹³ Allayarov O.X. "Turkiston o'lkasini boshqarish haqidagi nizom"ning yer egaligi va mahalliy aholi hayoti uchun oqibatlari. Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi. 2025-1/3. Xiva-2025. 9-bet.

¹⁴ Я. П. Демидов. Экономические очерки хлопководства, хлопковой торговли и умышленности в Туркестане. Москва. Новая Деревня. 1928. 27-бет.



doimiy yashab, Urgutda soʻdxoʻrlik bilan shugʻullangan. 1899-yil oxirida unga foiz evaziga 500 ming tanga berildi. Va oʻzaro manfaatlar yiliga 15% edi. Urgutda 30 dan ortiq dehqon xoʻjaliklari qarzdor boʻlgan¹⁵.

Mahalliy aholining yersizligi mana shu kabi muammolarga duchor boʻlishiga bevosita sabab boʻlgan.

Xulosa oʻrnida shuni taʼkidlash lozimki, Samarqand viloyati dehqonchilik uchun qulay maydonlarga ega boʻlganligi hisobiga Turkistonda yer va davlat mulki boshqarmasi faoliyatida muhim rol oʻynagan. Paxta siyosatining viloyatda ham keng qoʻllanilishi boshqa turdagi ekin maydonlarining kamayishiga olib kela boshladi, shu bilan birga yangi yerlarni oʻzlashtirish asosiy vazifasi boʻlgan boshqarma bu viloyatda faol ish yuritgan. Mirzachoʻl hududining viloyatga tegishli yer maydonlarida oʻzlashtirish ishlari aynan shu boshqarma tomonidan amalga oshirilgan. Yana bir muhim jarayon yerga egalik masalasi hisoblanib, azaldan shakllanagan yer egaligi xususiyatlari oʻzgarib bordi. Bunda 1886-yilda qabul qilingan nizom muhim ahamiyat kasb etgan. Bu esa mahalliy aholi hayotining ogʻirlashib borishiga sabab boʻldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Справочная книжка Самаркандской области. 1909-г. Выпускъ IX. Самарканд. Типо-литография Г.И. Демурова 1909.
2. Справочная книжка Самаркандской области. 1907-г. Выпускъ IX. Самарканд. Типо-литография Г.И. Демурова 1907.
3. Положение объ управлении Туркестанскаго края. Ташкент1903. Типо-литография В.И. Ильпина 1903.
4. Ўз.МА: 7-фонд, 1-рўйхат, 2428- иш.
5. Ўз.МА: 7-фонд, 1-рўйхат, 8909-иш.
6. К.К. Пален. “Материалы к характеристике народного хозяйства Туркестана”. 1911.

¹⁵ Т.С. Саидкулов. Самарканд во второй половине XIX-начале XX веков. Самарканд. 1970. 128-бет.



7. И.И. Гейер. Туркестан. Ташкент. Типография Туркестанского Т-ва печатного дела. 1909.
8. Я. П. Демидов. Экономические очерки хлопководства, хлопковой торговли и умышленности в Туркестане. Москва. Новая Деревня. 1928.
9. С. Г. Конопка. Туркестанский край. Ташкент. Г. М. Цвилинг. 1912.
10. Голодный степь. (История края в документах). Москва. Наука. 1981.
11. Т.С. Саидкулов. Самарканд во второй половине XIX-начале XX веков. Самарканд. 1970.
12. О.Х. Allayarov. “Turkiston o‘lkasini boshqarish haqidagi nizom”ning yer egaligi va mahalliy aholi hayoti uchun oqibatlari. Xorazm Ma’mun akademiyasi axborotnomasi. 2025-1/3. Xiva-2025.